

**O'SMIR QIZLAR SALOMATIGI –DAVLATIMIZ RIVOJLANISHI OMILI**

**Latipova K.YU, Saidbayeva L.M, Topilova F.M, Abdullaeva Z.O'**

**Andijon davlat universiteti**

**Asaka tuman 16-o'rta maktab o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ayollar sog'ligi jamiyatning eng muxim masalasidir. Sog'lom farzand dunyoga keltirishi birinchi navbatda uning sog'ligiga bog'liq. Ushbu ishda ayollar sog'ligi saqlash masalasi ko'rilgan.

**Аннотация:** Женское здоровье является важнейшей проблемой общества. Рождение здорового ребенка зависит в первую очередь от его здоровья. В данном случае рассматривался вопрос женского здоровья.

**Abstract:** Women's health is the most important problem of society. The birth of a healthy child depends primarily on his health. In this case, the issue of women's health was considered.

**Kalit so'zlar:** Kamqonlik, kislorod yetishmovchiligi, arterial qon bosimi, jismoniy rivojlanish, gemoglobin va bosh.

**Ключевые слова:** анемия, кислородная недостаточность, артериальное давление, физическое развитие, гемоглобин и др.

**Key words:** Anemia, oxygen deficiency, arterial blood pressure, physical development, hemoglobin and etc.

Ayol-xayotning ko'rki, xayotning davomchisidir, chunki tabiat ayolga ona bo'lishdek, ajoyib va komil farzandlar dunyoga keltirishdek ulug' baxtni aro etgan. Ayolning tinch farovon hayoti, chiroyli turmushi, sog'lom farzand dunyoga keltirishi birinchi navbatda uning sog'ligiga bog'liq. Hozirgi vaqtda ayollar xalq xo'jaligining deyyarli barcha tarmoqlarida fidokorona mehnat qilmoqdalar. Respublikamiz prizidentining qator qarorlari ona va bola salomatligini saqlashga qaratilgan. Yangi qabul qilingan qonunlarda oila manfaati ustun ekanligi nazarda tutilmoqda. Ekologik muxitning o'zgarishi ayollar va bolalar salomatligiga ta'sir etmoqda, statistik ma'lumotlarga ko'ra har yili respublika miqyosida 4 million tonna zaharli chiqindilar chiqarilmoqda. Undan 1,5 mln tonnasi sanoat korxonalarini va 2,5 mln tonnasi avtortransport vositalari tufaylidir. Bu chiqindilar nafas olish paytida og'iz bo'shlig'i orqali oshqozon ichak yo'llariga tushib organizmga salbiy ta'sir etadi. Shaxar havosida chiqindi moddalar normadan 2- martta ko'p. Bu esa har xil allergik kasalliklarning kelib chiqishiga o'lib keladi. Ilmiy adabiyotlarga asosan axolining 10-20% allergik kasalliklarga uchragan, 40-50% da esa allergik belgilar aniqlangan. Respublikamizda uzoq vaqt mobaynida qishloq xo'jalik ishlarida pestitsidlar keng qo'llanilgan edi. 1989-1990- yillarda 85 ming tonna pestitsidlar sepilgan bo'lib, bu har biriga o'rtacha 20kg dan to'g'ri keladi. Ular hamma ochiq suv xavzalarida, tuproq tarkibida keng uchraydi. Ayniqsa ularning ona sutida uchrashi juda xavflidir. Bu moddalar keng ishlatilgan joylarda kasalliklarning soni 2-3 martta yuqori bo'ladi. Ularning ta'sirida nafas olish organlari, endokrin sistemasi, yurak qon tomirlar sistemasi, jigar kasalliklari, kamqonlik, onkologik kasalliklar kuzatilmoqda, va aqli zaif bolalar dunyoga ko'paymoqda. Nitratlar suv va ozuqa moddalar bular organizmga tushgandan keyin nitritlarga aylanadi, ular qonga o'tib qondagi gemoglobin bilan kirishib, kislirod yetishmovchiligiga olib keladi. Ma'lumki viloyatimiz axoli zichligi bo'yicha eng yuqori o'rinlarni egallaydi. Shu bilan birga bu yerda sanoat ham yaxshi rivojlangan. Shuning uchun bu ekologik sharoitda yashovchi aholi salomatligining holatini o'rganish katta ahamiyatga ega. Bizning sharoitimizda ham yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarning ko'plari uchraydi. Shulardan ayollar o'rtasida keng

tarqalgan kasalliklardan biri bu kamqonlikdir. Kamqonlikning asosiy sabablaridan biri bu organizmda temir yetishmasligidir. Kamqonlik va kislorod yetishmovchiligi esa ayolar va bolalar salomatligiga salbiy ta'sir etadi. Masalan ayollarda tug'ruq paytida qon ketishiga olib kelib, onalar o'limiga ham olib kelishi mumkin. Tabiiyki qizlarimiz bo'lajak onalar, shuning uchun ularning normal o'sishi va rivojlanishi jamiyatimiz uchun katta ahamiyatga ega. Qizlarning jismonan sog'lom, aqlan yetuk keng dunyoqarashga ega bo'lishi jamiyat uchun kerakli bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashda katta yordam beradi. Qizlik davrida xosil bo'lgan kamqonlikka qarshi kurash olib borilmasa, bu xolat kelajan avlod sog'ligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qizlarning salomatligini o'rganish maqsadida biz kafedramizda taxsil olayotgan talaba qizlar bilan fakultetimizda o'qiyotgan 100 nafar yashash va o'qish sharoiti deyyarli bir xil qizlarning yurak qon tomir sistemasi, nafas olish sistemasini kuzatdik.

**Olingan natijalar** esa ancha ajablanarli bo'ldi, chunki normada ayolarda qondagi gemoglobin miqdori 120-130 g/l bo'lsa faqat birgina qizda bu ko'rsatkich 110 bo'ldi, qolganlarida esa ancha kam bo'lib chiqdi. Arterial qon bosimi o'zgarishi ham qizlarning yoshi va jismoniy rivojlanishiga bog'liqligini ko'rsatdi. Yurak qon tomir sistemasining rivojlanishi nafas olish faoliyatiga ham ta'sir etadi. Buni kuzatishlarimizdan o'pkaning tiriklik sig'imining o'zgarishida ko'rishimiz mumkin. **Shunday qilib kuzatishda** qatnashgan hamma qizlarda gemoglobin miqdorining kamligi aniqlandi. Bu hodisa mexanizmlarni taxlil qilganda quyidagi sabablarni ko'rsatish mumkin. Qondagi gemoglobin miqdoriga ratsional ovqatlanish, xazm tizimida so'rilish jarayonlarining borishi, organizmda temir moddasining miqdoriga ijobiy ta'sir etadi. Shu omillarning ko'pchiligi talaba qizlarning organizmda yetishmaydi. Bu yetishmovchilik esa ularda kamqonlikning rivojlanishiga olib keladi.

Kafedramiz o'qituvchilari talabalarni bu natijalar bilan tanishtirish maqsadida talabalar turar joyida turli suxbatlar o'tkazib unda ratsional ovqatlanish, kun tartibini to'g'ri tashkil qilish, organizmni chiniqtirish, jismoniy tarbiya mashqlarining ahamiyati to'g'risidagi suxbatlar o'tkazdi. Bu masalalarga dars davomida ham katta ahamiyat beriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от 13 апреля 2009 года № ПП-1096 «О дополнительных мерах по охране здоровья матери и ребенка, формированию здорового поколения».
2. Елгина С.И., Захаров И.С., Рудаева Е.В. Репродуктивное здоровье женщин и особенности пищевого поведения. *Фундаментальная и клиническая медицина*. 2019, 4 (3), 48–53.
3. Калачикова О.Н., Шабунова А.А. Репродуктивное здоровье и поведенческие факторы его формирования (на материалах социологического исследования в Вологодской области). *Проблемы развития территории*, 2016, 1 (81), 115–129.
4. Сергейко И.В. Медико-социальные факторы, влияющие на репродуктивное здоровье женщин. *Социальные аспекты здоровья населения*, 2014, 1 (35). URL: <http://vestnik.mednet.ru/content/view/544/30/lang,ru/>
5. Тузов Д.А. Женщины репродуктивного возраста как объект статистического исследования. *Экономика, статистика и информатика. Вестник УМО*, 2010, No. 1, 121–126